



O'ZBEKISTON HUQUQ TIZIMIDA SUD PRETSEDENTI (CASE LAW) INSTITUTINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18049192>

“Cyber University” davlat universiteti

Huquq va Biznes fakulteti O'qituvchisi **Fazilat Miraxmedova**

f.miraxmedova@csu.uz

“Cyber University” davlat universiteti

Huquq va Biznes fakulteti talabasi **Botirboyev Javohir**

botirboyevjavohir22@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Maqola O'zbekistonning kontinental huquq tizimida sud amaliyoti huquqi (pretsedent) elementlarini joriy etish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Mamlakat qonun ustuvorligiga asoslangan civil law modeliga amal qiladi, biroq oxirgi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, sud qarorlari o'rtasidagi tafovutlar va normativ-huquqiy bo'shliqlarning ko'payishi huquqni qo'llashda izchillikni ta'minlash zaruratini kuchaytirmoqda. Shu bois sud qarorlarining yuridik kuchini kuchaytirish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda.*

Tadqiqotda pretsedent tizimining mohiyati, uning anglo-sakson va kontinental huquqdagi o'rni qiyosiy tahlil qilinadi. Amaldagi holatga ko'ra, O'zbekistonda sud qarorlari normani izohlovchi manba sifatida qo'llansa-da, ular majburiy kuchga ega emas. Bu esa bir xil holatlarga nisbatan bir xil yondashuvni shakllantirishni qiyinlashtiradi. Maqola O'zbekiston sharoitiga mos “cheklangan pretsedent” modelini taklif qiladi. Unga ko'ra, faqat Oliy sudning umumiy ahamiyatga ega ayrim qarorlariga majburiy kuch berilishi, yagona elektron pretsedentlar reyestri yaratilishi va sudyalarning uchun talqin metodikasi takomillashtirilishi lozim. Xulosa sifatida, pretsedent elementlarining bosqichma-bosqich joriy etilishi huquq tizimining izchilligi, yuridik aniqlik va sud amaliyotining barqarorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

KALIT SO'ZLAR: *Pretsedent huquqi, sud amaliyoti, cheklangan pretsedent modeli, Oliy sud qarorlari, huquqni qo'llash izchilligi, yuridik aniqlik, elektron pretsedentlar reyestri.*

THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF JUDICIAL PRECEDENT IN UZBEKISTAN'S LEGAL SYSTEM

ABSTRACT: *The article analyzes the possibilities of introducing elements of case law into Uzbekistan's continental legal system. Although the country follows a civil law model based on the primacy of legislation, recent socio-economic developments, increasing complexity of legal relations, divergences in judicial decisions, and the emergence of legal*



gaps have intensified the need for consistency in law application. Therefore, strengthening the legal force of judicial decisions has become an important issue.

The study examines the nature of the precedent system and its role within Anglo-Saxon and continental legal traditions. Currently, court decisions in Uzbekistan function mainly as interpretative sources and do not have binding authority, which complicates the establishment of uniform approaches to similar legal situations. The article proposes a “limited precedent” model adapted to national conditions. Under this model, only certain Supreme Court decisions of general significance would be granted binding force, alongside the creation of a unified electronic precedent registry and the improvement of judicial interpretation methodology. In conclusion, the article emphasizes that the gradual introduction of precedent elements can enhance the coherence of the legal system, strengthen legal certainty, and contribute to the stability of judicial practice in Uzbekistan.

KEY WORDS: Case law, judicial practice, limited precedent model, Supreme Court decisions, consistency in law application, legal certainty, electronic precedent registry.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimi tarixan kodifikatsiyaga asoslangan, yozma huquq ustuvor bo‘lgan yevro-kontinental (roman-german) huquq oilasiga mansubdir. Mazkur huquq tizimida normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, qonunlar huquqning asosiy va yetakchi manbai sifatida e‘tirof etiladi. Shu bilan birga, sudlar faoliyati asosan qonunlarni qo‘llash va ularning mazmunini aniqlashtirish bilan cheklanib kelgan.

Biroq so‘nggi yillarda mamlakatda huquqni qo‘llash amaliyotining murakkablashuvi, ijtimoiy munosabatlarning jadal rivojlanishi hamda qonunchilikdagi ayrim bo‘shliqlar va noaniqliklar sud amaliyotida bir xillikni ta‘minlash masalasini yanada dolzarb etmoqda. Amaliyotda bir xil huquqiy holatlarga nisbatan turlicha sud qarorlarining qabul qilinishi huquqiy

aniqlik va adolat tamoyillariga putur yetkazishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, sud qarorlarining izchilligi va barqarorligini ta‘minlash, qonun normalarini yagona talqinda qo‘llash hamda huquqni rivojlantirishda sud amaliyotining rolini kuchaytirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ehtiyojlar O‘zbekiston huquq tizimida sud amaliyotiga tayanish, ya‘ni sud precedenti (case law) elementlarini bosqichma-bosqich va ehtiyotkorlik bilan joriy etish masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda.

Mazkur maqolada O‘zbekistonning amaldagi huquq tizimi doirasida sud precedenti institutining nazariy asoslari, uning huquq manbai sifatidagi imkoniyatlari hamda milliy huquq tizimiga moslashuvchan modelini shakllantirish masalalari tadqiq etiladi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari



Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasining kodifikatsiyaga asoslangan huquq tizimida sud precedenti elementlarini joriy etish imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish hamda ushbu institutni milliy huquq tizimiga mos holda tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot vazifalari belgilandi:

- sud precedenti institutining mazmuni, huquqiy tabiati va funksiyalarini huquqiy nazariya nuqtai nazaridan tahlil qilish;

- yevro-kontinental huquq tizimi va anglo-sakson huquq tizimida huquq manbalari o'rtasidagi farqlarni solishtirma-huquqiy usulda o'rganish;

- O'zbekiston Respublikasida sud qarorlarining huquqiy maqomi va ularning huquqni qo'llashdagi ahamiyatini aniqlash;

- sud amaliyotida uchrayotgan muammolar va qarorlar o'rtasidagi nomuvofiqliklarni tahlil qilish;

- sud precedenti elementlarini joriy etishning huquqiy va institutsional imkoniyatlarini baholash;

- O'zbekiston huquq tizimiga mos, cheklangan va muvozanatli sud precedenti modelini ishlab chiqish.

TADQIQOT

METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, mantiqiy tahlil va sintez usullari sud precedenti institutining nazariy asoslarini ochib

berishda qo'llanildi. Taqqoslama-huquqiy usul orqali civil law va common law tizimlarida sud amaliyotining huquq manbai sifatidagi o'rni qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, formal-yuridik metod qonun hujjatlari va sud qarorlarining mazmunini tahlil qilishda, tizimli yondashuv esa huquq manbalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda qo'llanildi. Empirik material sifatida milliy sud amaliyoti, oliy sud organlarining qarorlari hamda xorijiy davlatlar tajribasi o'rganildi.

Tadqiqot davomida olingan xulosalar umumlashtirish va ilmiy prognozlash usullari yordamida ishlab chiqilib, O'zbekiston huquq tizimiga mos amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

1. Sud Precedenti (Case Law) tushunchasi va mohiyati

Sud precedenti (case law) huquq tizimida sudlar tomonidan ilgari ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha qabul qilingan qarorlarning keyingi o'xshash huquqiy munosabatlarga nisbatan majburiy ahamiyat kasb etishini anglatadi. Mazkur institut, avvalo, anglo-sakson huquq oilasiga xos bo'lib, unda sud amaliyoti huquqni shakllantirish va rivojlantirishning muhim manbai sifatida namoyon bo'ladi. Sud precedenti tizimida huquq faqat qonun chiqaruvchi organ tomonidan emas, balki sudlar tomonidan ham rivojlantiriladi.

Precedentning huquqiy mohiyati sud qarorining tarkibiy qismi bo'lgan *ratio decidendi*, ya'ni qarorning normativ asosini tashkil etuvchi huquqiy xulosada



mujassam bo'lad. Aynan ushbu qism keyingi sudlar uchun majburiy bo'lib, yangi huquqiy qoida sifatida tatbiq etiladi. Shu tariqa, sud precedenti huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga mos ravishda huquqning moslashuvchanligini ham oshiradi (Merryman, Pérez-Perdomo, 2019).

Bundan tashqari, precedentning majburiyligi (binding precedent) sud hokimiyatiga normativ xarakterdagi funksiyani yuklaydi. Natijada sudlar nafaqat qonunni qo'llovchi, balki huquqni shakllantiruvchi subyekt sifatida ham maydonga chiqadi (Cross, Harris, 1991). Ushbu holat sud precedenti (common law) tizimining o'ziga xos va muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

2. Kontinental huquq tizimi (civil law)da huquq manbalari va sud amaliyotining o'rni

Kontinental (Civil law) huquq tizimi, asosan, kodifikatsiyalangan normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda shakllangan bo'lib, uning markazida qonun huquqning asosiy va ustuvor manbai sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tizimda huquq normalari oldindan aniq, yozma va tizimli shaklda belgilanadi, bu esa huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Qonun chiqarish vakolati esa mutlaq ravishda parlament yoki vakolatli davlat organlariga tegishli hisoblanadi (Kischel, 2019).

Kontinental (Civil law) huquq tizimida sud qarorlari, qoida tariqasida,

mustaqil huquq manbai sifatida tan olinmaydi. Sudlarning asosiy vazifasi qonun normalarini qo'llash va ularni talqin qilishdan iborat bo'lib, yangi huquqiy qoidalar yaratish qonun chiqaruvchi hokimiyat vakolatiga kiradi. Shu bois, sud hokimiyatining normativ ijodkorligi ushbu tizimda cheklangan xarakterga ega.

Shu bilan birga, amaliyotda sud qarorlari muayyan darajada huquqni qo'llashda yo'naltiruvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, oliy sud instansiyalari qarorlari va tushuntirishlari quyi sudlar tomonidan huquqni bir xil qo'llash maqsadida inobatga olinadi. Bunday qarorlar majburiy kuchga ega bo'lmagan holda, *persuasive authority*, ya'ni ishontiruvchi manba sifatida namoyon bo'lad (Lenaerts, 2012). Bu holat civil law tizimida ham sud amaliyotining ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

3. Anglo-sakson huquq tizimi (civil law) va kontinental huquq (common law) tizimlarining qiyosiy-huquqiy tahlili

Anglo-sakson huquq tizimi va kontinental huquq tizimlari tarixiy shakllanishi, huquq manbalari va sud hokimiyatining roli jihatidan sezilarli darajada farqlanadi. Anglo-sakson huquq tizimi Angliya, Amerika, Yangi Zelandiya, Avstraliya davlatlari sud amaliyoti asosida rivojlangan bo'lib, unda sudlar huquqni shakllantiruvchi asosiy institut sifatida faoliyat yuritadi (Duxbury, 2008). Sud qarorlari huquqiy



norma sifatida e'tirof etilib, keyingi ishlar uchun majburiy kuchga ega bo'ladi.

Aksincha, kontinental huquq tizimi Rim huquqi an'analari va Yevropa davlatlarida amalga oshirilgan keng ko'lamli kodifikatsiya jarayonlari asosida shakllangan. Bu tizimda normativ-huquqiy hujjatlar ustuvor bo'lib, sud hokimiyatining roli asosan qonunlarni qo'llash va izohlash bilan cheklanadi. Shunday qilib, huquq ijodkorligi qonun chiqaruvchi organ vakolatiga birlashtirilgan (Egea-de Haro, 2024).

Biroq zamonaviy globallashtirish, huquqiy tizimlarning yaqinlashuvi va murakkab ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishi natijasida har ikki huquq tizimi bir-birining ayrim elementlarini qabul qila boshladi. Xususan, civil law tizimiga mansub davlatlarda sud amaliyotining ahamiyati ortib, ayrim sud qarorlari de-fakto precedential qiymat kasb etmoqda. Shu bilan birga, anglo-sakson tizimida ham kodifikatsiya jarayonlari kuchayib, yozma qonunlarning roli oshib bormoqda.

Mazkur o'zaro yaqinlashuv huquq tizimlarining mutlaq qarama-qarshi emas, balki dinamik va moslashuvchan ekanini ko'rsatadi hamda sud precedenti institutini civil law tizimi doirasida cheklangan va muvozanatli shaklda joriy etish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga zamin yaratadi.

4. O'zbekiston huquq tizimida sud precedenti (case law) elementlari

O'zbekiston Respublikasining amaldagi huquq tizimida sud qarorlari

rasmiy ravishda huquq manbasi sifatida e'tirof etilmaydi. Huquq manbalari tizimida Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, sud hokimiyatining vazifasi ushbu normalarni qo'llash va talqin qilish bilan cheklanadi. Mazkur yondashuv yevro-kontinental huquq tizimining klassik tamoyillariga mos keladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari sud amaliyotini umumlashtirish va muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qarorlar sudlar tomonidan qonun normalarini to'g'ri va bir xil qo'llashga yo'naltirilgan bo'lsa-da, ular normativ-huquqiy akt sifatida rasman tan olinmagan. Shunga qaramay, quyi instansiya sudlarining ushbu qararlarga muntazam tayanishi amaliyotda ularning de-fakto majburiy ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda (Rustaboyev, To'xtasheva, 2009).

4.1. Sud amaliyotida uchrayotgan muammolar

O'zbekiston sud amaliyotida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular huquqni qo'llash samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, bir xil yoki o'xshash huquqiy holatlar bo'yicha sudlar tomonidan turlicha qarorlar qabul qilinayotgani huquqiy aniqlik va adolat tamoyillariga putur yetkazmoqda. Bunday holatlar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining sud tizimiga bo'lgan ishonchini susaytirishi mumkin.

Shuningdek, qonun normalarining turlicha talqin qilinishi sud qarorlarining



barqarorligini ta'minlashda muhim to'siq bo'lib qolmoqda. Amaldagi normativ bazaning murakkabligi, huquqiy normalarning ba'zan umumiy va noaniq ifodalanishi ushbu muammoni yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, sudyalarning yetishmasligi va sudlarga tushayotgan ishlar sonining ortib borishi sud amaliyotida sifat masalasini dolzarb qilib qo'yimoqda (Odilqoriev, 2018).

Yangi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning jadal rivojlanishi natijasida qonunchilikda muayyan huquqiy bo'shliqlar vujudga kelmoqda. Mazkur bo'shliqlarni faqat qonun chiqarish yo'li bilan tezkor bartaraf etish har doim ham imkoni bo'lmagani sababli, sud amaliyotining moslashuvchan mexanizmlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Aynan shu jihatdan, sud precedenti elementlari mavjud muammolarni yumshatishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

4.2. Sud Precedenti (Case law)ga bo'lgan ehtiyojning obyektiv omillari

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, elektron shartnomalar va raqamli aktivlar bilan bog'liq munosabatlarning paydo bo'lishi, shuningdek, biznes va investitsiya nizolarining ko'payishi sud amaliyotidan yuqori darajada barqarorlik va bir xillikni talab qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga faol

integratsiyalashuvi, xalqaro arbitraj institutlari bilan hamkorlikning kengayishi ham sud qarorlarining prognoz qilinuvchanligini muhim omilga aylantirmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, huquqni qo'llashdagi izchillik va sud amaliyotining barqarorligi qulay investitsiya muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi (Saydullayev, 2024).

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston huquq tizimida sud precedenti institutini to'liq joriy etish emas, balki uning ayrim elementlarini ehtiyotkorlik bilan tatbiq etish obyektiv zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday yondashuv bir tomondan qonun ustuvorligini saqlab qolishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan sud amaliyotining moslashuvchanligi va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

5. Sud precedenti (case law) elementlarini joriy etish imkoniyatlari va takliflar

O'zbekiston Respublikasining amaldagi huquq tizimi yevro-kontinental huquq oilasiga mansub bo'lib, unda qonun ustuvorligi asosiy tamoyil hisoblanadi. Shu sababli mamlakatda to'liq anglo-sakson (common law) tizimini joriy etish na nazariy, na amaliy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq sud amaliyotida barqarorlik va bir xillikni ta'minlash zarurati sud precedenti institutining ayrim elementlarini ehtiyotkorlik bilan tatbiq etishni talab etadi.

Mazkur sharoitda O'zbekiston uchun eng maqbul yechim sifatida "*cheklangan sud precedenti*" (limited



precedent) modeli taklif etiladi. Ushbu modelga ko'ra, faqat yuqori sud instansiyalari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tanlab olingan ayrim qarorlariga majburiy huquqiy kuch beriladi. Bunday yondashuv Fransiya Kassatsiya sudi hamda Janubiy Koreya sud amaliyotida qo'llanilayotgan modellarga yaqin bo'lib, qonun ustuvorligini saqlagan holda sud amaliyotining izchilligini ta'minlash imkonini beradi (Abdurahmon o'g'li, 2024).

Taklif etilayotgan model quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

— faqat Oliy sud tomonidan maxsus tartibda tanlab olingan qarorlar majburiy precedential ahamiyatga ega bo'ladi;

— agar sud precedentsiz qaror qabul qilsa, bunday holat albatta asoslantirilgan huquqiy izoh bilan mustahkamlanadi;

— sud qarorlarida "huquqiy pozitsiya" alohida va aniq tarzda ajratib ko'rsatiladi, bu esa ularning keyingi amaliyotda qo'llanishini yengillashtiradi.

5.1. Sud precedenti institutini joriy etish uchun normativ-huquqiy asos yaratish bo'yicha takliflar

Sud precedenti elementlarini amaliyotga joriy etish, avvalo, mustahkam normativ-huquqiy asosni talab etadi. Shu bois, quyidagi qonunchilik o'zgarishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, sud qarorlarining huquqiy ahamiyatini belgilovchi alohida norma O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasiga yoki "Sudlar to'g'risida"gi Qonunga kiritilishi lozim. Ushbu norma sud precedenti elementlarining huquqiy asosini yaratadi.

Ikkinchidan, Oliy sudning ayrim qarorlarini rasmiy huquq manbasi sifatida e'tirof etish mexanizmini joriy etish zarur. Bu qarorlar maxsus tartibda tanlanib, umummajburiy huquqiy pozitsiya sifatida belgilanishi mumkin.

Uchinchidan, sud precedenti institutining samarali faoliyat yuritishi uchun precedentsial qarorlarning yagona elektron reyestrini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur reyestr sudyalari, advokatlar va boshqa huquq subyektlari uchun ochiq va qulay bo'lishi lozim.

To'rtinchidan, sud qarorlarida huquqiy pozitsiyani aniq shakllantirish va ifodalash bo'yicha metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilishi sud amaliyotining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

5.2. Sud precedenti institutini tatbiq etishning amaliy mexanizmlari

Sud precedenti elementlarini joriy etish faqat normativ-huquqiy o'zgarishlar bilan cheklanib qolmasdan, samarali amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlanishi zarur. Avvalo, sudyalarning kasbiy malakasini oshirish masalasi ustuvor ahamiyatga ega. Xususan, sud precedenti, huquqiy pozitsiyalarni talqin qilish va ularni qo'llash bo'yicha maxsus trening va o'quv dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, Oliy sud huzurida Huquqiy pozitsiyalar markazini tashkil



etish sud amaliyotini tizimli tahlil qilish, muhim qarorlarni tanlash va ularni umumlashtirish imkonini beradi. Ushbu markaz sud precedenti institutining ilmiy-uslubiy tayanchiga aylanishi mumkin.

Shuningdek, sud qarorlarining ochiqligi va raqamlashtirilishini kengaytirish, ularni yagona axborot platformasida joylashtirish sud amaliyotining shaffofligini ta'minlaydi. Normativ-huquqiy hujjatlar va sud qarorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish esa huquqni qo'llash jarayonini yanada samarali qiladi.

5.3. Sud precedenti elementlarini joriy etishning kutilayotgan natijalari

Taklif etilayotgan sud precedenti modeli O'zbekiston huquq tizimida bir qator ijobiy natijalarga olib kelishi kutiladi. Avvalo, sud amaliyotida yagona va barqaror yondashuv shakllanib, bir xil huquqiy holatlarda turlicha qarorlar qabul qilinishi kamayadi. Bu esa huquqiy aniqlik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, huquqni qo'llashda barqarorlik va oldindan aytish mumkinlik darajasi oshib, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining sud tizimiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi. Sud qarorlarining nufuzi va institutsional ahamiyati ortishi sud hokimiyatining mustaqilligini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, sud amaliyotining izchilligi investitsion muhitni yaxshilashga, qonun normalarini talqin qilish jarayonini soddalashtirishga hamda huquqiy bo'shliqlarni amaliy yo'l

bilan tezkor bartaraf etishga xizmat qiladi. Natijada, sud precedenti elementlarini cheklangan va muvozanatli shaklda joriy etish O'zbekiston huquq tizimini zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining kodifikatsiyaga asoslangan huquq tizimida sud precedenti (case law) elementlarini joriy etish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy asoslar yetarli darajada shakllangan. Mamlakat huquq tizimi yevro-kontinental huquq oilasiga mansub bo'lishiga qaramay, sud amaliyotida huquqni qo'llash bir xilligini ta'minlash, qonun normalarining izchil va aniq talqinini shakllantirish hamda ijtimoiy munosabatlarning jadal rivojlanishi natijasida vujudga kelayotgan huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish ehtiyoji tobora ortib bormoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, amaldagi qonunchilikda sud qarorlari rasmiy huquq manbasi sifatida tan olinmagan bo'lsa-da, Oliy sud Plenumi qarorlari va sud amaliyotining umumlashtirilgan pozitsiyalari amaliyotda muhim yo'naltiruvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat O'zbekiston huquq tizimida sud precedenti elementlarining de-fakto mavjud ekanini ko'rsatadi hamda ularni huquqiy jihatdan tizimlashtirish zaruratini asoslaydi.

Tadqiqotda taklif etilgan "cheklangan sud precedenti" modeli



O'zbekiston huquq tizimining asosiy tamoyillariga zid kelmaydi va qonun ustuvorligini saqlagan holda sud amaliyotini to'ldiruvchi mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin. Mazkur model doirasida faqat Oliy sudning tanlangan ayrim qarorlariga majburiy huquqiy kuch berilishi huquqni qo'llashda barqarorlikni ta'minlash bilan birga, sud hokimiyatining normativ vakolatlarini haddan tashqari kengaytirish xavfini ham oldini oladi.

Sud precedenti institutining bosqichma-bosqich va ehtiyotkorlik bilan joriy etilishi sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirishga, huquqiy

aniqlik va oldindan aytish mumkinlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, sud hokimiyatining nufuzi mustahkamlanadi, huquqni qo'llash samaradorligi ortadi hamda qulay investitsiya va biznes muhitini rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratiladi.

Umuman olganda, sud precedenti elementlarini O'zbekiston huquq tizimiga moslashtirilgan, cheklangan va muvozanatli shaklda joriy etish mamlakatda huquqiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va zamonaviy huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi muhim bosqichlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmon o'g'li, A. A. (2024). Huquq oilalarining davlat boshqaruvi va sud tizimiga ta'siri. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 42(1), 236–241.
2. Cross, R., & Harris, J. W. (1991). Precedent in English law (4th ed., pp. 1–38, 72–110, 189–214). Oxford University Press.
3. Duxbury, N. (2008). The nature and authority of precedent (pp. 1–45, 105–156, 183–201). Cambridge University Press.
4. Egea-de Haro, A. (2024). How does case law shape civil law systems? An analysis of administrative courts. *Journal of Comparative Law*. Springer.
5. Kischel, U. (2019). Comparative law (pp. 243–260, 287–305). Oxford University Press.
6. Lenaerts, K. (2012). The rule of law and the coherence of the judicial system of the European Union. *Common Market Law Review*, 44(6), 1625–1659.
7. Merryman, J. H., & Pérez-Perdomo, R. (2019). The civil law tradition: An introduction to the legal systems of Europe and Latin America (4th ed.). Stanford University Press.
8. Odilqoriev, X. T. (2018). Davlat va huquq nazariyasi: Darslik (pp. 1–528). Adolat.
9. Rustaboyev, M. H., & To'xtasheva, A. B. D. (2009). O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari. TDYI.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Rasmiy matn (2023 yil 30 aprelgi o'zgartirishlar bilan). Respublika Oliy Majlisi Qonun hujjatlari ma'lumotnomasi.
11. Saydullayev, Sh. A. (2024). Davlat va huquq nazariyasi: Darslik (pp. 1–231). TDYU.